

“TIBBIY TURIZMDA MUVAFFAQIYATLI XALQARO TAJRIBALAR: JANUBIY KOREYA, HINDISTON, TURKIYA VA TAILAND MISOLIDA”

Barkamol Ernazarov

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish
bo‘limi yetakchi mutaxassisi

ORCID ID: 0009-0007-4186-2802

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17609458>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon tibbiyot turizmi bozorining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Unda Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya va Tailand davlatlarining tibbiy turizm sohasidagi muvaffaqiyatli tajribalari o‘rganilib, ularning asosiy yutuqlari, samarali boshqaruv modeli hamda xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish amaliyotlari yoritilgan. Tadqiqotda ushbu mamlakatlarda tibbiy turizm rivojiga turtki bo‘lgan omillar — yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiyot tizimi, malakali mutaxassislar, narx va sifat muvozanati, hukumatning qo‘llab-quvvatlash siyosati, infratuzilma va marketing strategiyalarining ahamiyati tahlil etilgan.

Maqola yakunida O‘zbekiston uchun mazkur davlatlar tajribasidan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan jihatlar, jumladan, sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro akkreditatsiya tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar eksportini rag‘batlantirish hamda milliy brendni shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy turizm, xalqaro tajriba, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Tailand, sog‘liqni saqlash tizimi, innovatsion texnologiyalar, akkreditatsiya, marketing, O‘zbekiston tajribasi.

Abstract. This article analyzes the current state and development trends of the global medical tourism market. It examines the successful experiences of South Korea, India, Turkey, and Thailand in the field of medical tourism, highlighting their key achievements, effective management models, and service practices aligned with international standards. The study identifies the main factors contributing to the growth of medical tourism in these countries, such as advanced healthcare technologies, skilled professionals, cost-quality balance, strong government support, infrastructure development, and marketing strategies.

The paper concludes with recommendations for Uzbekistan, suggesting ways to benefit from these experiences through modernization of healthcare infrastructure, implementation of international accreditation systems, promotion of medical service exports, and the creation of a national medical tourism brand.

Keywords: medical tourism, international experience, South Korea, India, Turkey, Thailand, healthcare system, innovative technologies, accreditation, marketing, Uzbekistan experience.

Абстракт. В данной статье анализируется современное состояние и тенденции развития мирового рынка медицинского туризма. Рассмотрен успешный опыт Южной Кореи, Индии, Турции и Таиланда в сфере медицинского туризма, освещены их основные достижения, эффективные модели управления и практики обслуживания, соответствующие международным стандартам. В исследовании выделены ключевые

факторы, способствующие развитию медицинского туризма в этих странах: использование передовых медицинских технологий, высокий уровень квалификации специалистов, оптимальное соотношение цены и качества, поддержка со стороны государства, развитие инфраструктуры и маркетинговые стратегии.

В заключении представлены рекомендации для Узбекистана по изучению и применению данного опыта — модернизация инфраструктуры здравоохранения, внедрение системы международной аккредитации, стимулирование экспорта медицинских услуг и формирование национального бренда медицинского туризма.

Ключевые слова: *медицинский туризм, международный опыт, Южная Корея, Индия, Турция, Таиланд, система здравоохранения, инновационные технологии, аккредитация, маркетинг, опыт Узбекистана.*

Kirish

So‘nggi yillarda tibbiy turizm global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati jihatidan eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab yiliga 20–30 million bemor xorijga davolanish yoki sog‘lomlashtirish maqsadida safar qilmoqda. Turli manbalarda keltirilishicha, tibbiy turizm bozorining umumiy hajmi 2023 yilda 100 milliard AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan va 2030 yilga borib 200 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Bunday sur‘atlar ushbu sohani global iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Tibbiy turizmning rivojlanishiga bir qator omillar ta‘sir ko‘rsatmoqda: rivojlangan davlatlarda davolanish narxining yuqoriligi, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori malakali mutaxassislar sonining ko‘payishi, aviatsiya va transport-logistika imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va telemeditsina xizmatlarining kirib kelishi. Shu sababli bemorlar nafaqat iqtisodiy jihatdan maqbul, balki sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatadigan markazlarni izlab, turli davlatlarga yo‘l olmoqda.

Xalqaro tajribalarni o‘rganish ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan muhim, chunki har bir mamlakat o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitda tibbiy turizmni rivojlantirgan. Masalan, ayrim davlatlar yuqori texnologiyalarga asoslangan jarrohlik va transplantatsiya xizmatlari bilan mashhur bo‘lsa, boshqalari an‘anaviy shifo usullari, Ayurveda yoki sanatoriy-kurort infratuzilmasi orqali xalqaro e‘tiborni jalb etmoqda. Bundan tashqari, xorijiy bemorlar oqimini boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish, huquqiy-me‘yoriy asoslarni mustahkamlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash borasidagi yondashuvlar ham mamlakatdan mamlakatga sezilarli darajada farqlanadi.

Shu jihatdan, tibbiy turizm sohasida xalqaro miqyosda muvaffaqiyat qozongan ayrim davlatlarning tajribalarini chuqur tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Ushbu bo‘limda Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Tailand va Germaniya kabi mamlakatlarning ilg‘or amaliyotlari ko‘rib chiqiladi. Har bir mamlakat misolida ularning muvaffaqiyat omillari, boshqaruv va marketing strategiyalari, innovatsion yondashuvlari hamda barqarorlikka asoslangan tashabbuslari yoritib beriladi. Ushbu tahlillar xalqaro tibbiy turizm bozorining o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash va kelgusida sohaning rivojlanish tendensiyalarini anglash imkonini beradi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoning eng mashhur tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakat o'tgan o'n yillik davomida xorijiy bemorlarni jalb etishda ilg'or tibbiy texnologiyalar, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va keng qamrovli davlat siyosati asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil holatiga kelib Koreyaga tibbiy maqsadda tashrif buyurgan xorijiy bemorlarning kumulativ soni besh million nafardan oshgan, 2024 yilda esa birgina yil davomida 1,2 milliondan ortiq xorijiy bemor qabul qilinib, tarixiy rekord qayd etilgan. Bu ko'rsatkich Janubiy Koreyaning pandemiyadan keyingi davrda eng tez tiklangan tibbiy turizm bozorlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. COVID-19 yillarida bemorlar oqimi keskin kamayib, 2020 yilda 120 mingga tushgan bo'lsa, 2021 yilda 146 ming, 2022 yilda 248 mingga ko'tarildi va bu ko'rsatkich 2019 yilgi 497 ming bemor darajasining yarmidan ortig'ini tashkil etdi. 2023-yilda esa 606 ming xorijiy bemor tashrif buyurib, pandemiyadan oldingi darajadan 1,2 baravar yuqori natijaga erishildi. 2024 yilda ilk bor yillik ko'rsatkich 1 milliondan oshdi.

Tibbiy turizm dinamikasi doimiy o'sishda bo'lib, 2009 yilda 60 ming, 2015 yilda 300 ming, 2016 yilda 364 ming, 2019 yilda 500 ming bemor Koreyada davolangan. Bu jarayonlar Janubiy Koreya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan “Medical Korea” brendi va marketing strategiyalari bilan chambarchas bog'liq. Xorijiy bemorlarning geografiyasi ham sezilarli darajada kengaydi: bir o'n yil oldin AQSh va Yaponiya bemorlari xorijiy bemorlarning yarmiga yaqinini tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan tashrif buyuruvchilar ulushi barqaror oshib bormoqda. 2023 yilda Koreyaga jami 198 davlatdan bemorlar kelgan.

Bemorlar tomonidan eng ko'p murojaat qilinadigan xizmatlar orasida dermatologiya birinchi o'rinda turib, 2024 yilda bu bo'limda 705 ming xorijiy bemor davolangan. Bu ko'rsatkich koreys pop-madaniyati — K-pop va K-drama ta'siri ostida Koreya estetik va teri parvarishi xizmatlariga qiziqishning oshib borishi bilan bog'liq. 2024-yilda ichki kasalliklar bo'limiga 124 mingdan ortiq bemor tashrif buyurgan, umumiy jarrohlik bo'limida esa 15,7 ming xorijiy bemor qabul qilingan va bu 2009-yildan buyon eng yuqori natija hisoblanadi. Plastik jarrohlik, dermatologiya va kosmetik muolajalar asosan Osiyo davlatlaridan kelgan bemorlar orasida mashhur bo'lsa, AQSh va Rossiyadan kelgan bemorlar ko'proq ichki kasalliklar va sog'liqni umumiy tekshirish markazlariga murojaat qilgan.

2024-yilgi tahlillarga ko'ra, xorijiy bemorlar eng ko'p quyidagi yo'nalishlarga murojaat qilgan: dermatologiya (23%), integrativ ichki kasalliklar (18%), plastik jarrohlik (12%), sog'liqni tekshirish markazlari (8%), akusherlik-ginekologiya (4%), ortopediya (4%), integratsiyalashgan sharqona tibbiyot (3%), umumiy jarrohlik (3%) va stomatologiya (3%). Eng mashhur jarrohlik muolajalari — rinoplastika, blefaroplastika, yuz konturingi; ixtisoslashgan davolash xizmatlari orasida esa bepustlikni davolash, organ transplantatsiyasi, onkologik terapiyalar, kardiologiya, umurtqa jarrohligi va ortopediya mavjud. Shuningdek, Janubiy Koreya robot-assist jarrohlik, regenerativ dermatologiya va ildiz hujayra texnologiyalari bo'yicha jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy bemorlarning Koreya xizmatlariga bo'lgan qoniqish darajasi juda yuqori: 2023-yilgi so'rovda ularning umumiy bahosi 89,2 ballni tashkil qilgan. Bu Koreya sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini ko'rsatadi. Numbeo va CEOWORLD reytinglariga ko'ra, Koreya 2024-yilgi Health Care Index'da 110 mamlakat ichida 2-o'rinni egallagan. Newsweek reytinglarida esa Seul Milliy Universiteti klinikasi, Asan Medical Center va Samsung Medical Center muntazam ravishda dunyoning eng yaxshi 250 shifoxonasi qatoridan joy oladi.

Koreyaning muvaffaqiyati narx-sifat uyg'unligi, yuqori natijaviylik va qisqa kutish muddatlari bilan ham izohlanadi. Ko'plab estetik va diagnostik xizmatlar AQSh yoki Yevropa davlatlariga nisbatan **30–80%** arzonroq, shifoxona o'rinlari va texnik ta'minot esa sezilarli darajada ko'p: aholi jon boshiga **12,8** kasalxona o'rni va har bir million aholiga 35 ta MRI apparati (OECD o'rtacha ko'rsatkichi 18). Koreyada sog'liqni umumiy tekshirish (check-up) dasturlari jahon bozorida yetakchi hisoblanadi, 2024-yilda AQShdan kelgan bemorlar orasida ham check-up(ko'rik) muolajalari plastik jarrohlikka qaraganda ko'proq talab qilingan. Profilaktik tekshiruvlar (MRI, qon tahlillari, endoskopiya) qisqa vaqt ichida, odatda yarim kunda yakunlanadi.

Jadval 1

Tibbiy turizm mutaxassislarining vazifalari

Klassifikatsiya	Ish turi	Vazifa turi
Koordinator	Tibbiy turizm koordinatori	Tibbiy turizm jarayonining umumiy rejasini tuzish va amalga oshirish, shuningdek, tibbiyot muassasalari va mijozlarga tegishli xizmatlarni taqdim etish
	Xalqaro klinika xizmati koordinatori	Xorijiy bemorlarga klinik xizmatlar ko'rsatishni tibbiy tajribaga asoslanib tashkil etish va boshqarish
	Xalqaro bemorlarni parvarishlash koordinatori	Jarrohlikdan keyin og'ir holatdagi bemorlarga maxsus parvarish xizmatlarini tibbiyot muassasasi ichida ko'rsatish
	Tibbiy turizm tarjimon-koordinatori	Tibbiy terminologiya va tajribaga asoslangan tarjima xizmatini ko'rsatish, shunda bemor va tibbiyot xodimlari bir-birlarini aniq tushunishlari mumkin bo'ladi
Marketolog	Tibbiy turizm targ'ibotchisi / marketolog	Tibbiy turizm paketlari uchun reklama strategiyalari va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish
	Tibbiy turizm paketlari rejalashtiruvchisi	Tibbiy turizm paketlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda mutaxassis
	Tibbiy turizm bo'yicha maslahatchi	Maslahat xizmatlarini ko'rsatish, jumladan, tibbiy turizm infratuzilmasini yaratish, strategiyalarni amalga oshirish, tibbiyot muassasalariga xorijiy bozorlarga kirishga yordam berish va xalqaro bemorlarni jalb etish uchun boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish

Koreya hukumati tibbiy turizmni strategik milliy sanoat sifatida rivojlantirish siyosatini olib bormoqda. Asosiy huquqiy baza — “**Medical Services Act**” xorijiy bemorlarni jalb qilish tartibini belgilab, faqat ro'yxatdan o'tgan klinikalar va agentliklarga ruxsat beradi; ro'yxatdan o'tmagan muassasalarga sanksiyalar qo'llaniladi. Barcha ro'yxatdan o'tgan tibbiyot muassasalari tibbiy xatoliklar sug'urtasiga ega bo'lishi shart. Maxsus tibbiy vizalar — qisqa muddatli (C-3-3) va uzoq muddatli (G-1-10) vizalar — xorijiy bemorlar va ularning hamrohlariga 90 kungacha qolishga ruxsat beradi, zarurat tug'ilganda uzaytiriladi.

2013-yilda Koreya dunyoda birinchi bo‘lib xalqaro tibbiy turizm koordinatori — **International Meditour Coordinator (IMC)** milliy malaka tizimini joriy etdi. Bu mutaxassislar bemorlarning safarini tashkil etishdan tortib, davolanish va reabilitatsiyaga qadar **“one-stop”** ko‘makni ta‘minlaydi. IMClar tibbiy turizm marketingi, risk-menejment, tarjima, turpaketlar va parvarish xizmatlarini birlashtiradi. Milliy texnik malaka tizimi orqali sertifikat olgan IMClar davlat idoralari, shifoxonalar va turizm kompaniyalarida ishga joylashish imkoniyatiga ega. Ushbu tizimga ko‘ra tibbiyot turizmi mutaxassislarining vazifalari quyidagicha taqsimlanadi.

Koreya sog‘liqni saqlash sanoatini xalqaro miqyosda ilgari surish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Madaniyat, sport va turizm vazirligi Wellness va Medical Tourism Convergence Cluster loyihasini amalga oshirib, Seul va metropoliten markazlari tashqarisida tibbiy infratuzilmani rivojlantirishga e‘tibor qaratmoqda. Incheon, Daegu–Gyeongbuk va Busan shaharlarida plastik jarrohlik, dermatologiya, onkologiya va transplantatsiya yo‘nalishlari rivojlantirilsa, Gangwon, Chungbuk va Jeonbuk viloyatlarida issiq buloqlar, o‘rmonlarda salomatlikni tiklash, sharqona tibbiyot asosida wellness turizm kengaytirilmoqda.

Davlat siyosati Koreyani tibbiy turizm bozorida global yetakchiga aylantirishga qaratilgan. Hukumat 2027-yilgacha har yili 700 ming xorijiy bemor jalb etishni maqsad qilgan. Buning uchun **“Medical Korea — Smart Care”** tashabbusi doirasida Koreya sog‘liqni saqlash sanoati rivojlantirish instituti (KHIDI) tomonidan marketing, akkreditatsiya, tarjima va birlashtirilgan xizmatlar ta‘minlanmoqda. Hukumat xorijiy bemorlar uchun integratsiyalashgan xizmatlarni yaratishga, shifoxonalar va turizm obyektlarini bog‘lashga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Shunday qilib, Janubiy Koreya tajribasi tibbiy turizmni milliy strategik sanoat sifatida rivojlantirishning eng samarali modellari qatoriga kiradi. Bu modelda yuqori texnologiya, kuchli infratuzilma, davlat siyosati, kadrlar malakasi, bemorlar huquqlarining himoyasi, marketing va madaniy brend (“hallyu”) uyg‘unlashgan. Koreya tajribasi O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, milliy brend yaratish, maxsus vizalar joriy etish, hududiy wellness va tibbiy turizm klasterlarini rivojlantirish, xalqaro akkreditatsiya va sifat kafolatlarini yo‘lga qo‘yishda samarali yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hindiston tajribasi. Hindistonda sog‘liqni saqlash tarixi sivilizatsiyaning o‘zi bilan tengdir. Britaniya mustamlakachiligi davrigacha ham bu mamlakatda katarakta, kesarcha kesish, plastik jarrohlik va hatto miya operatsiyalari amalga oshirilgan. 2600 yildan ortiq vaqt avval yashagan Sushruta – Hind jarrohligining asoschisi – 125 dan ortiq jarrohlik asboblardan foydalangan holda murakkab operatsiyalarni bajargan. Bugungi kunda esa hind shifokorlari har qanday murakkab operatsiyalarni amalga oshirishga qodir. Zamonaviy tibbiy infratuzilma, ilg‘or texnologiyalar va malakali mutaxassislarning uyg‘unligi Hindistonni g‘arbiy tibbiyot amaliyoti bilan milliy tajribaning noyob qo‘shilmasiga aylantirgan. Katta tibbiyot kompaniyalari xorijiy texnika va bilimlarni olib kirib, mamlakatda dunyo standartlariga mos shifoxonalar tashkil etmoqda. Natijada Hindiston tibbiyot xizmati sifati yildan-yilga oshib, zamonaviy, innovatsion va dinamik tizimga aylanmoqda.

Hindiston bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, malakali mutaxassislar, tez rivojlanayotgan farmatsevtika sanoati va boy madaniy merosi bilan dunyoning yetakchi tibbiy turizm yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Har yili millionlab bemorlar maslahat, davolanish yoki sog‘lomlashtirish uchun bu mamlakatga tashrif buyuradi. Robot yordamida jarrohlik amaliyoti, regenerativ tibbiyotdagi yutuqlar, stem-hujayra tadqiqotlari Hindiston tibbiyotining yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Sog‘liqni saqlashdagi yuqori standartlarni ta‘minlash maqsadida Milliy Akkreditatsiya Kengashi (NABH) tomonidan shifoxonalar uchun qat‘iy

me'yorlar ishlab chiqilgan. Ko'plab hind shifoxonalari JCI akkreditatsiyasiga ega bo'lib, bu ularni AQShdagi sog'liqni saqlash muassasalari bilan tenglashtiradi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropada ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan ko'plab shifokorlar Hindistonda o'z klinikalarini tashkil etgan yoki xususiy shifoxonalarda amaliyot olib boradi. Yurak jarrohligi, ortopediya, stomatologiya, kosmetik jarrohlik, organ transplantatsiyasi kabi yo'nalishlar eng ko'p talab qilinadigan sohalardir. Bundan tashqari, Ayurveda, yoga va naturoterapiya kabi muqobil davolash usullari ham Hindistonga alohida ustunlik beradi. (Surgery Tours India, 2024: p. 12)

Hozirgi kunda Hindistonda tibbiy turizm mamlakat iqtisodiyotining tez o'sib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2022-yilda Hindistonning tibbiy turizm sohasi qiymati 9 milliard AQSh dollariga baholangan. Har yili 78 mamlakatdan taxminan 2 million bemor tibbiy davolanish, sog'lomlashtirish va sun'iy urug'lantirish (IVF) muolajalari uchun Hindistonga tashrif buyuradi. Bu soha yiliga 6 milliard dollar daromad keltiradi va 2026-yilga borib 13 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu jarayon Hindiston hukumati tomonidan ilgari surilgan “Heal in India” tashabbusi bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2019-yilgi Hindiston Savdo-sanoat palatasi (FICCI) va Ernst & Young hisobotiga ko'ra, Hindistonga kelayotgan tibbiy bemorlarning aksariyati Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va SAARC mintaqasidan bo'lib, shuningdek, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya va AQShdan ham ko'plab bemorlar tashrif buyurishadi. Chennai shahri esa Hindistonning “sog'liqni saqlash poytaxti” sifatida tan olingan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasining tez rivojlanishi tibbiyot, IT va outsourcing xizmatlarining rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Hindistonning 100 dan ortiq universiteti va o'n minglab kollejlarda muntazam ravishda malakali tibbiyot xodimlari tayyorlanmoqda. Hukumat turli grantlar va stipendiyalar orqali tibbiyot ta'limini qo'llab-quvvatlamogda. Ko'plab talabalar AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropadagi tajribali jarrohlar qo'l ostida amaliyot o'tash imkoniga ega bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatda qariyb 950 ming mutaxassis, 4000 dan ortiq shifoxona va minglab sog'lomlashtirish markazlari faoliyat yuritadi. Bu Hindistonni tibbiy turizm uchun eng qulay yo'nalishlardan biriga aylantiradi.

Tibbiy turizmni yanada rivojlantirish maqsadida 2019-yil fevral oyida Hindiston hukumati tibbiy sayohatchilar uchun elektron viza tizimini kengaytirdi. Bu viza orqali mamlakatda qolish muddati 6 oygacha etib belgilangan. 2019-yil avgustidan boshlab xorijliklar Hindistonda organ ko'chirib o'tkazishdan tashqari barcha tibbiy muolajalarni maxsus tibbiy visasiz olishi mumkin bo'ldi. 2023-yil avgust oyida esa Hindiston Ichki ishlar vazirligi “**Ayush Visa**” nomli yangi viza turini joriy etdi. Bu tashabbus xorijiy bemorlar uchun sog'lomlashtirish sayohatlarini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, hozirda texnologik kompaniyalar ham onlayn tibbiy turizm xizmatlarini yo'lga qo'yimoqda.

Hindistonda tibbiy davolanishning asosiy ustunliklari — xizmatlarning arzonligi, zamonaviy tibbiy texnologiyalar, xalqaro sifat standartlariga moslik, shuningdek, AQSh va Buyuk Britaniyada ta'lim olgan malakali shifokorlar hamda ingliz tilida so'zlashuvchi tibbiyot xodimlarining mavjudligidir. Shu sababli, xorijiy bemorlar Hindistonda til to'siqlariga deyarli duch kelmaydi.

Eng mashhur tibbiy muolajalar qatoriga yurak operatsiyalari, bo'g'im almashtirish, plastik jarrohlik, stomatologiya, saratonni davolash va oftalmologik amaliyotlar kiradi. Eng nufuzli shifoxonalar qatorida Apollo Hospitals, Fortis Healthcare, Max Healthcare va Medanta – The Medicity bor. Ularning aksariyati NABH (National Accreditation Board for Hospitals &

Healthcare Providers) hamda JCI (Joint Commission International) tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan. Ko‘plab klinikalar xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lgan bo‘lib, bemor xavfsizligi va xizmat sifati bilan ajralib turadi. Davolanish narxlari G‘arb mamlakatlariga qaraganda ancha arzon — o‘rtacha **60–90 foizgacha** tejamkorlikni ta‘minlaydi. Masalan, AQShda 100 ming dollarga tushadigan yurak bypass operatsiyasi Hindistonda atigi **5–8 ming dollar** atrofida. Tizza chanoqlarini almashtirish **4–9 ming dollar**, son bo‘g‘imini almashtirish esa **5–10 ming dollar** oralig‘ida turadi.

2024-yilga kelib, Hindistonda davolanish uchun kelgan xorijiy sayyohlar soni 650 ming nafardan oshdi, bu ko‘rsatkich 2020-yildagi 180 mingdan uch baravar ko‘pdir. 2025-yilning dastlabki to‘rt oyida esa 131 mingdan ortiq bemor mamlakatga davolanish uchun tashrif buyurgan. Mutaxassislarining fikricha, tibbiy turizm bozori 2025-yilda 18,2 milliard dollarni tashkil etadi va 2035-yilga borib 58,2 milliard dollarga yetadi.

Xorijiy bemorlar orasida Hindistonda eng ko‘p talab qilinadigan muolajalar qatoriga yurak-qon tomir kasalliklarini davolash, neyroxirurgik amaliyotlar, tizza bo‘g‘imi protezlari, kosmetik operatsiyalar va stomatologik xizmatlar kiradi. Hindiston, shuningdek, Osiyodagi boshqa tibbiy turizm yo‘nalishlari — Tailand, Singapur, Kuala-Lumpur yoki Seulga nisbatan xizmat narxi eng past bo‘lgan mamlakat sifatida ajralib turadi.

Jadval 2.

Tibbiy muolajalarning nisbiy narxi, Hindiston va boshqa Osiyo yo‘nalishlari (AQSH dollarida \$)

Tibbiy muolaja	Hindiston	Malayzia	Tayland	Singapur	Janubiy Koreya
Yurak ko‘chirib o‘tkazish	7,900	12,100	15,000	17,200	26,000
Angioplastika	5,700	8,000	4,200	13,400	17,700
Klapanlarni almashtirish	9,500	13,500	17,200	16,900	39,900
Chanoq almashtirish	7,200	8,000	17,000	13,900	21,000
Tizza bo‘g‘imini almashtirish	6,600	7,700	14,000	16,000	17,500

Turkiya tajribasi. Turkiya bugungi kunda jahon miqyosidagi eng yirik tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, Yevropa, Yaqin Sharq, Osiyo va boshqa mintaqalardan kelayotgan bemorlarni o‘ziga jalb etmoqda. Geografik joylashuvi, zamonaviy infratuzilmasi va raqobatbardosh davolanish narxlari bilan G‘arb mamlakatlari sog‘liqni saqlash tizimlariga kuchli muqobil sifatida qaraladi. Istanbul, Ankara, Antalya va Izmir kabi yirik shaharlardagi klinikalar zamonaviy texnologiyalar, xalqaro akkreditatsiyalarga ega shifoxonalar hamda ko‘p tilli xodimlari bilan tanilgan. Turkiyada kosmetik jarrohlik, stomatologiya, oftalmologiya, organ transplantatsiyasi yoki onkologik davolash kabi murakkab tibbiy jarayonlardan tortib, estetik muolajalargacha bo‘lgan xizmatlar yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan.

Turkiyaning davolash madaniyati chuqur tarixiy ildizlarga ega. Asrlar davomida xalq tabobati, o‘simlik terapiyalari va mashhur turk hammomlari orqali sog‘lomlashtirish an‘analari

shakllangan. Bugungi kunda esa mamlakat yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiyot markaziga aylangan. Hukumatning sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlari, davlat-xususiy sheriklik dasturlari hamda tibbiy turizmni qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida ko‘plab mahalliy shifoxonalar xalqaro miqyosda e‘tirof etilmoqda. Bemor markazida bo‘lgan xizmat madaniyati, turk xalqi mehmondo‘stligi va insoniy munosabati davolanish jarayonida ishonchli muhit yaratadi.

Turkiya ayniqsa kosmetik va rekonstruktiv jarrohlik, soch ekish, stomatologiya hamda ko‘z jarrohligi bo‘yicha yuqori natijalarga ega. Bundan tashqari, in vitro urug‘lantirish (IVF), ortopediya, minimal invaziv va robotlashtirilgan jarrohlik amaliyotlari ham keng qo‘llaniladi. Davolanish narxlar AQSh, Buyuk Britaniya yoki Germaniya kabi mamlakatlarga nisbatan 50–70% arzonroq bo‘lib, ko‘pincha kutish muddati qisqa, paket xizmatlar esa mehmonxona va transport bilan birgalikda taqdim etiladi. Shifokorlarning aksariyati xalqaro tajribaga ega, ingliz tilini yaxshi biladi va ko‘plab shifoxonalar Yevropa hamda Shimoliy Amerikadagi nufuzli tibbiy institutlar bilan hamkorlik qiladi. (MedicalTourism.com, n.d.: b.7)

USHAŞ (Turkiya davlat tibbiyot kompaniyasi) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakat 1,5 milliondan ortiq xalqaro bemorni qabul qilib, 3 milliard AQSh dollaridan ortiq daromad olgan. 2025-yilga kelib Turkiya sog‘liqni saqlash bo‘yicha Global Relocate Index reytingida 26-o‘rinni egalladi, bu esa Kanada, AQSh, Shvetsiya, Avstraliya va Yangi Zelandiyadan yuqori natija hisoblanadi. WIPO Global Innovation Index bo‘yicha esa Turkiya 133 ta iqtisodiyot orasida 37-o‘rinni egallab, innovatsion tibbiy yechimlarda yetakchi sifatida e‘tirof etilgan. Memorial, Acıbadem, Koç va boshqa yirik sog‘liqni saqlash guruhlari eng ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan klinikalarga ega. 2024-yil sentabr oyida Koç sog‘liqni saqlash tizimining ikkita shifoxonasi (Koç University Hospital va Amerikan Hospital) AQShdagi mashhur Mayo Clinic Care Network tarmog‘iga qo‘shildi. Bu Yevropada ushbu tarmoqqa qo‘shilgan ilk muassasalar bo‘ldi. (USHAŞ 2024 15b)

“Placid Way” platformasi ma‘lumotlariga ko‘ra, bemorlar o‘z mamlakatida davolanish o‘rniga Turkiyada tibbiy muolajalar o‘tkazish orqali 50 foizdan 70 foizgacha mablag‘ tejashlari mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda yashovchi fuqarolar tish davolash yoki kosmetik jarrohlik kabi, sug‘urta bilan qoplanmaydigan xizmatlar uchun xorijga chiqib, ancha arzon narxlarda sifatli davolanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jadval 3.

Turkiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan tibbiy muolajalar uchun o‘rtacha xarajatlarning qiyosiy sharhi

2024-yilda mamlakatlar bo‘yicha soch ko‘chirib o‘tkazishning o‘rtacha narxi (AQSH dollarida) - Medihair platformasi ma‘lumotlari asosida									
Turkiya	AQSh	Kanada	Buyuk Britaniya	Avstriya	Fransiya	Germaniya	Italiya	Ispaniya	Polsha
\$2,675 €2,570 £2,138	\$13,610	\$17,500	\$8,050	\$13,751	\$8,379	\$7,372	\$7,097	\$5,267	\$5,647
2024-yilda mamlakatlar bo‘yicha ko‘z lazik operatsiyasining o‘rtacha narxi AQSh dollarida (Placid Way tibbiy turizm)									

kompaniyasi ma'lumotiga ko'ra)									
Turkiya	AQSh	Kanada	Buyuk Britaniya	Avstriya	Fransiya	Germaniya	Belgiya	Ispaniya	Shvetsariya
\$1,265 €1,214 £1,011	\$4,400	\$2,705	\$1,795	\$1,151	\$2,244	\$1,458	\$2,804	\$1,189	\$3,700
2025-yilda AQSH dollarida (\$) bitta tish implantining o'rtacha qiymati (Tibbiy turizm korporatsiyasi va Qunomedical ma'lumotlariga ko'ra)									
Turkiya	AQSh	Kanada	Buyuk Britaniya	Avstriya	Xorvatiya	Germaniya	Vengriya	Chexiya	Polsha
\$570 €547 £455	\$3,750	\$1,950	\$2,950	\$5,500	\$730	\$1,770	\$1,146	\$1,146	\$1,146
2025-yilda AQSHda rinoplastika amaliyotining o'rtacha narxi (Wupdoc ma'lumotiga ko'ra)									
Turkiya	AQSh	Meksika	Buyuk Britaniya	BAA	Tayland	Ispaniya	Italiya	Xorvatiya	Polsha
\$2,700 €2,600 £2,166	\$7,250	\$3,230	\$7,030	\$7,030	\$3,280	\$6,250	\$6,770	\$3,385	\$5,730

Turkiyada davolanish jarayonini qulay tashkil etish uchun davlat **HealthTurkey** nomli rasmiy onlayn platformani ishga tushirgan. Bu portal xalqaro bemorlar va turk tibbiy muassasalari o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, bemorlar uchun qulay, shaffof va tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Vizalar esa ko'p hollarda elektron tarzda rasmiylashtiriladi yoki ko'plab mamlakat fuqarolari uchun vizasiz kirish imkoniyati mavjud. (Bose S., 2025: 5b.)

Turkiyada 40 ta tibbiy muassasa **Joint Commission International (JCI)** tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan bo'lib, ulardan 25 tasi Istanbulda joylashgan. Bular orasida 4 ta akademik tibbiyot markazi, 3 ta ambulatoriya dasturi va 32 ta shifoxona dasturi mavjud. Barcha muassasalar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qat'iy litsenziyalash va sifat nazoratidan o'tadi.

Tibbiy turizm bilan shug'ullanadigan klinikalar xorijiy tillarni bilish sertifikatiga yoki Xalqaro Sog'liqni saqlash turizmi (IHT) litsenziyasiga ega bo'lishi kerak. Bu hujjatlar diagnostika, davolash va rehabilitatsiya xizmatlarini xalqaro darajada ko'rsatish imkonini beradi. Bemorlarning huquqlari, xavfsizligi va maxfiyligi qonuniy tarzda himoya qilinadi. Malpractice holatlarida bemorlar Sog'liqni saqlash vazirligi yoki shifoxonaga nisbatan da'vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ega.

So'nggi yillarda xalqaro bemorlar tomonidan Turkiyada amalga oshirilgan tibbiy muolajalar, xususan kosmetik jarrohlik, stomatologiya va soch ekish operatsiyalari yuqori muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini namoyon etmoqda. Statista portali ma'lumotlariga ko'ra, 2023-

yilda eng mashhur estetik amaliyotlar rinoplastika, liposaktsiya va qovoq operatsiyasi bo‘lgan. Soch ekish bo‘yicha esa Turkiya dunyo miqyosida eng yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi — 2022-yilda bir millionga yaqin xorijiy bemor ushbu muolaja uchun kelgan va bu yo‘nalishdan 2 milliard dollardan ortiq daromad olingan. (Advantour, 2025: b.27)

Davolanishdan so‘ng bemorlarning tiklanish jarayoni ham puxta yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘plab shifoxonalar reabilitatsiya markazlari, masofaviy maslahat xizmatlari hamda fizioterapiya dasturlarini taklif etadi. Uzoq muddatli tiklanish talab qilinadigan bemorlar uchun sog‘lomlashtirish kurortlari bilan hamkorlik mavjud. Bular orasida **Pamukkale, Bursa, Yalova, Bolu** va **Afyon** kabi mashhur termal kurortlar bor. Bu maskanlar qadimiy yunon va rim davridan beri shifobaxsh issiq suv manbalari bilan mashhur bo‘lib, bugungi kunda ham tibbiy dam olish va reabilitatsiya markazlariga aylangan.

Turkiyada shuningdek, yoga, meditatsiya, stressni kamaytirish, qarishga qarshi kurashish va uyqusizlikni davolashga qaratilgan ko‘plab **wellness retreat** markazlari faoliyat yuritadi. Bu maskanlarda bemorlar sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va psixologik tiklanishni birlashtirgan individual dasturlar asosida davolanadilar.

Shunga qaramay, bemorlar har qanday tibbiy muolajadan oldin tanlagan klinikaning akkreditatsiya holatini, shifokorlarning malakasini va qonuniy hujjatlarini tekshirib chiqishlari zarur. Ayniqsa, plastik jarrohlik yoki transplantatsiya kabi nozik sohalarda xalqaro tasdiqlangan markazlarni tanlash tavsiya etiladi. Turkiya qonunchiligiga ko‘ra, har bir bemorga o‘z tilida yoki tushunadigan tilda **rozilik shakli (consent form)** taqdim etilishi va shikoyat tartibi haqida to‘liq ma‘lumot berilishi shart.

Xulosa qilib aytganda, Turkiya dunyo tibbiy turizm xaritasida o‘ziga xos o‘rin egallagan mamlakatdir. Bu yerda yuqori sifatli tibbiy xizmat, arzon narx, zamonaviy texnologiya, xalqaro standartlar va insonparvarlik qadriyatlarini uyg‘unlashgan. Turkiyada tibbiy sayohat — bu nafaqat davolanish, balki madaniyat, dam olish va sog‘lom hayot tarzining birlashgan tajribasidir.

Tailand tajribasi. Tailand bugungi kunda dunyoda tibbiy turizmning eng ilg‘or markazlaridan biri sifatida tan olingan. Har yili Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa va Shimoliy Amerikadan millionlab xorijiy bemorlar bu mamlakatga tashrif buyurishadi. Buning sababi Tailanda tibbiy xizmatlarning yuqori sifati, narxlarning qulayligi va bemorlarga bo‘lgan iliq munosabat uyg‘un tarzda taklif etilishidir. Bangkok, Chiang Mai va Phuket kabi yirik shaharlarda xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan, zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan jihozlangan shifoxonalar faoliyat yuritadi. Ushbu klinikalarda xorijiy bemorlar uchun ingliz tilini biladigan, xalqaro tajribaga ega shifokorlar xizmat ko‘rsatadi. Tailanda zamonaviy tibbiyot bilan bir qatorda an‘anaviy davolash usullari, massaj, spa va ruhiy tiklanishga qaratilgan muolajalar uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, bemorlar uchun to‘liq sog‘lomlashtiruvchi muhit yaratilgan. Hukumat tomonidan tibbiy turizm sohasiga katta e‘tibor berilayotgani, Tailand tibbiy turizm assotsiatsiyasining faoliyati va xususiy sektor investitsiyalari mamlakatni Janubi-Sharqiy Osiyoning tibbiyot markaziga aylantirdi.

So‘nggi yillarda Tailandning tibbiy turizm bozori jadal rivojlanmoqda. 2023-yilda bu sohaning umumiy qiymati 6 milliard dollarga yetgan bo‘lib, 3 milliondan ortiq xorijiy bemorlarni jalb etgan. Bozorning 90 foizdan ortig‘i Tailand ulushiga to‘g‘ri keladi va yillik o‘sish sur‘ati 16 foizni tashkil etadi. Bu mamlakatni nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda tibbiy turizm bo‘yicha yetakchi o‘ringa olib chiqmoqda. Tailanda yurak jarrohligi, ortopediya, plastik jarrohlik, stomatologiya, reproduktiv tibbiyot, onkologiya va boshqa ko‘plab sohalar yuqori darajada rivojlangan. Shuningdek, bemorlar davolanish jarayonini dam olish bilan

uyg'unlashtirib, mamlakatning tabiati, plyajlari, madaniyati va gastronomiyasidan bahramand bo'lishadi.

Tailandda davolanishning afzalliklari ko'p. Eng avvalo, tibbiy xizmatlar sifati G'arb davlatlarinikidan kam emas, biroq narxi 50–70 foiz arzon. Klinikalar xalqaro JCI akkreditatsiyasiga ega bo'lib, gigiyena, xavfsizlik va xizmat sifati bo'yicha qat'iy talablar asosida ishlaydi. Shifokorlarning aksariyati xorijda tahsil olgan, ingliz tilida bemalol so'zlashadi va o'z yo'nalishining yetuk mutaxassislari hisoblanadi. Davolanish uchun navbatlar qisqa, jarayonlar tez tashkil etiladi. Uzoq muddatli muolajalar uchun bir yillik tibbiy viza ham taqdim etiladi. Bundan tashqari, Tailandda davolanish jarayonini an'anaviy massaj, yoga, meditatsiya, spa va parhez dasturlari bilan birlashtirish mumkin. Xalqning mehmondo'stligi va shifokorlarning e'tibori bemorlarga ruhiy tinchlik baxsh etadi. Ko'plab klinikalar xalqaro sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi, bu esa to'lov va hujjatlarni soddalashtiradi.

Tailand tibbiy jihatdan ayniqsa yurak jarrohligi, ortopedik operatsiyalar, plastik va kosmetik jarrohlik, bepustlikni davolash, stomatologiya, oftalmologiya va saraton kasalliklarini davolashda dunyoda yetakchilik qiladi. Masalan, yurak operatsiyasi narxi 15–35 ming dollar atrofida bo'lib, AQShda bu ko'rsatkich 70–200 ming dollargacha yetadi. Tizza yoki son bo'g'imi almashtirish operatsiyalari 7–15 ming dollarni tashkil etadi, bu esa G'arbdagi narxdan ikki baravar arzon. Tish implantatsiyasi 2 400 dollardan, estetik jarrohlik operatsiyalari (masalan, yuzni tortish yoki burun shaklini o'zgartirish) esa 4–7 ming dollardan boshlanadi. IVF usuli bilan farzand ko'rish 8–13 ming dollarni tashkil etadi, bu ham Yevropa va AQSh narxlariga nisbatan ancha maqbul. Ko'z operatsiyalari, xususan LASIK, atigi 1 500–2 000 dollar turadi. Saraton kasalligini davolash esa bemorning holatiga qarab 2 mingdan 130 ming dollargacha bo'lishi mumkin. Tailandda hatto COVID-19dan keyingi rehabilitatsiya dasturlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ularning narxi 1–5 ming dollar oralig'ida. (Better by MTA, 2025: 11-b.)

Tailand shifoxonalari xorijiy bemorlar uchun maxsus tibbiy turizm paketlarini ham taklif qiladi. Bular kosmetik operatsiyalar, tish davolash, yurak yoki bo'g'im jarrohligi, IVF va saraton terapiyasi uchun mo'ljallangan to'liq dasturlardir. Paketlar tarkibiga maslahat, operatsiya, mehmonxona, parvarish va transport xizmatlari kiradi. Shuningdek, keksa yoshdagilar uchun rehabilitatsiya dasturlari, wellness va spa muolajalari, immunitetni kuchaytiruvchi IV terapiya kabi dasturlar ham keng ommalashgan. Shu bois ko'plab bemorlar Tailandni sog'lig'ini tiklash va dam olishni birlashtiruvchi mukammal manzil sifatida tanlashadi.

Tailand kosmetologiya va estetika bo'yicha ham jahon miqyosida yetakchi o'rinda turadi. Yuzni yoshartirish, burun plastikasi, liposaksiya, soch ekish, botoks, lazerli teri muolajalari kabi xizmatlar yuqori sifat va xavfsizlik darajasida amalga oshiriladi. Ayniqsa Bangkok, Phuket va Chiang Mai shaharlaridagi klinikalar tabiiy natijalar beruvchi, zamonaviy estetika markazlari sifatida mashhur. Mamlakatning yirik aeroportlari — Suvarnabhumi (Bangkok) va Phuket xalqaro aeroporti — bemorlarning kelishini osonlashtiradi. Ko'plab davlat fuqarolari uchun viza bekor qilingan yoki kelgan joyida beriladi. Shifoxonalar bemorlar uchun aeroportdan kutib olish, tarjimonlik, yashash joyini tashkil etish va shaxsiy hamroh xizmatlarini taklif etadi. Diniy va ovqatlanish talablari ham inobatga olinadi. Tailandning iliq iqlimi, dengiz bo'yidagi dam olish maskanlari, massaj va yoga markazlari sog'lomlashtirish jarayonini yanada yoqimli qiladi.

Tailand sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan barcha tibbiy muassasalar qat'iy nazorat ostida bo'lib, litsenziyalash, xavfsizlik va sifat talablari doimiy ravishda tekshiriladi. Shifoxonalar xalqaro akkreditatsiyaga ega, infeksiyalarni nazorat qilish, 24 soatlik hamshiralik

parvarishi va masofaviy maslahat tizimlari yo‘lga qo‘yilgan. Har bir bemorning huquqlari himoya qilinadi, tibbiy xizmatlar shaffof va ishonchli tarzda taqdim etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Tailand zamonaviy tibbiyot, maqbul narxlar va mehmondo‘stlikni uyg‘unlashtirgan holda dunyoda tibbiy turizmning markaziga aylangan. Xalqaro darajadagi shifoxonalar, yuqori malakali shifokorlar, qulay viza tartibi va sog‘lomlashtiruvchi muhit bemorlarga nafaqat davolanish, balki to‘liq tiklanish va ruhiy tinchlikni ham taqdim etadi. Shu bois Tailand bugungi kunda Osiyoning tibbiy turizm yuragi, sog‘liqni tiklash, go‘zallik va dam olishni birlashtiruvchi eng ishonchli manzil sifatida tan olingan.

Xizmat narxlarini solishtirganda, Tailandning afzalligi yaqqol seziladi:

Jadval 4.

Xizmat narxlarining AQSh va Yevropa bilan solishtirma sharhi

Tibbiy amaliyot	Tailand	AQSh	Yevropa
Ko‘krakni kattalashtirish	2 500–3 500 AQSh dollari	6 000–12 000 AQSh dollari	4 000–8 000 AQSh dollari
Tish implantatsiyasi (har bir tish uchun)	800–1 200 AQSh dollari	2 500–5 000 AQSh dollari	2 000–4 500 AQSh dollari
Son bo‘g‘imini almashtirish	7 000–10 000 AQSh dollari	30 000–45 000 AQSh dollari	20 000–30 000 AQSh dollari
Yurak bypass operatsiyasi	9 000–15 000 AQSh dollari	60 000–150 000 AQSh dollari	40 000–100 000 AQSh dollari
IVF (sun‘iy urug‘lantirish, har bir sikl uchun)	5 000–8 000 AQSh dollari	12 000–15 000 AQSh dollari	8 000–12 000 AQSh dollari
Oshqozonni kichraytirish (gastrik bypass)	8 000–12 000 AQSh dollari	15 000–30 000 AQSh dollari	10 000–20 000 AQSh dollari
Kimyoterapiya (har bir sikl uchun)	1 000–3 000 AQSh dollari	2 000–5 000 AQSh dollari	1 500–4 000 AQSh dollari

Xulosa. Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya va Tailand tajribasi tibbiy turizm sohasida jahon miqyosida muvaffaqiyat qozongan eng yirik to‘rt model sifatida e’tirof etiladi. Ularning har biri o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lsa-da, bu mamlakatlarni birlashtirib turadigan umumiy jihatlardan va asosiy muvaffaqiyat omillari mavjud. Eng avvalo, bu davlatlarning barchasida sog‘liqni saqlash tizimi sifatining yuqoriligi, xalqaro akkreditatsiyaga ega shifoxonalar, raqobatbardosh narx siyosati va hukumat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlash siyosati muvaffaqiyatning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Ularning tibbiy xizmatlari yuqori texnologiyalar, zamonaviy jihozlar, malakali mutaxassislar va qulay muhit bilan uyg‘unlashgan. Shu bilan birga, bemorlarning psixologik va madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda xizmat ko‘rsatish, xorijiy bemorlar uchun qulay viza tizimi, transport infratuzilmasining rivojlanganligi va turizm imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgan xizmatlar majmuasi bu mamlakatlarni jahon tibbiy turizm xaritasida yetakchi o‘ringa olib chiqqan. (MedPark Hospital, 2024: 6 b.)

Ularning tajribasida umumiylik shundaki, har biri tibbiyot sohasini strategik iqtisodiy yo‘nalish sifatida ko‘rgan. Davlat siyosatida tibbiy turizmni iqtisodiy o‘rnatishning yangi drayveri sifatida rivojlantirish uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, Janubiy Koreya tibbiy texnologiyalar va raqamlashtirilgan xizmatlar orqali ilg‘or tajriba yaratgan bo‘lsa, Hindiston malakali shifokorlar va arzon, ammo sifatli xizmatlari bilan tanilgan. Turkiya tibbiy xizmatni

zamonaviy klinikalar, estetik jarrohlik va yevropacha xizmat madaniyati bilan uyg'unlashtirgan bo'lsa, Tailand sog'lomlashtirish, reabilitatsiya va dam olishni birlashtirgan kompleks yondashuvi bilan ajralib turadi. Barcha mamlakatlarda tibbiy turizmni rivojlantirishda davlat, xususiy sektor va turizm sanoati o'rtasidagi hamkorlikning yuqori darajasi kuzatiladi.

O'zbekiston ushbu mamlakatlarning tajribasidan bir qator muhim jihatlarni o'rganishi mumkin. Birinchidan, tibbiyot tizimini xalqaro akkreditatsiyalarga moslashtirish va xorijiy bemorlarga mo'ljallangan klinikalarni yaratish lozim. Ikkinchidan, tibbiy turizmni milliy strategiya darajasiga ko'tarish, ya'ni bu sohani faqat sog'liqni saqlash emas, balki iqtisodiyot, turizm va investitsiya siyosati bilan uyg'un holda rivojlantirish zarur. Uchinchidan, xorijiy bemorlar uchun qulay sharoit — vizani soddalashtirish, til va madaniyat bo'yicha xizmatlarni yaxshilash, maxsus “International Patient Center”lar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. To'rtinchidan, xalqaro reklama va brending faoliyatini kuchaytirish orqali O'zbekistonni “Sog'lomlik va shifo maskani” sifatida tanitish kerak.

Kelajakda O'zbekiston tibbiy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy choralarni amalga oshirishi mumkin: zamonaviy tibbiy markazlarni xalqaro talablar asosida rekonstruksiya qilish, chet ellik investorlarni jalb etish, malakali mutaxassislar tayyorlash va xorijda tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish. Shuningdek, tabiiy davolash resurslari — sanatoriylar, mineral suvlarga boy maskanlar, tog'li iqlim sharoitlari va milliy mehmondo'stlikni kompleks tarzda birlashtirish orqali O'zbekiston o'zining noyob tibbiy turizm brendini yaratishi mumkin. Shu tarzda mamlakat nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun mintaqa miqyosida raqobatbardosh tibbiy turizm markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Why Choose India for Medical Tourism - Medical Tourism In India - Medical Packages India, Surgery Tours India. (2024, December 12). Medical Tourism in India - Medical Packages India, Surgery Tours India. <https://www.surgerytoursindia.com/why-choose-india-for-medical-tourism/>
2. India | Global Healthcare Destination. (n.d.). Wwww.medicaltourism.com. <https://www.medicaltourism.com/destinations/india>
3. Bose, S. (2025, April 10). Medical Tourism as a Pillar of India-Bangladesh Relations: Will It Hold? Orfonline.org; OBSERVER RESEARCH FOUNDATION (ORF). <https://www.orfonline.org/research/medical-tourism-as-a-pillar-of-india-bangladesh-relations-will-it-hold>
4. Health and Medical Tourism in Turkey: Safe and Cost-Effective. (2025). Advantour.com. <https://www.advantour.com/turkey/medical-tourism.htm>
5. Better by MTA | Medical Tourism Destination | Thailand. (2025). Medicaltourism.com. <https://www.better.medicaltourism.com/destinations/thailand>
6. MedPark Hospital. (2024, July 12). Thailand Medical Tourism: Top 8 Treatments 2023. MedPark Hospital. <https://www.medparkhospital.com/en-US/news/thailand-medical-tourism>.